

## INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI TA'MINLASHGA MA'SUL DAVLAT ORGANLARI

*Akramova Habibahon O'tkirbek qizi*

*Qoraqalpoq Davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Intellektual mulk huquqini ta'minlashga ma'sul davlat organlari haqida tushuncha va intellektual mulk huquqini ta'minlashga ma'sul davlat organlarini tavsifi. Ularni faolyatini tartibga soluvchi qonun qoidalar

**Kalit so'zlar:** Intellektual mulk muhofazasi, Adliya vazirligi, Intellektual mulk agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasida nazorat bo'yicha davlat inspektsiyasi, Davlat organlari, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekkonsert.

Bugungi kunda yurtimizda Intellektual mulk huquqini ta'minlashga davlatimiz tomonidan bir qancha chora-tadbirlar ko'rilmogda. Intellektual mulk huquqini bir nechta turlari mavjud bo'lib, tovar belgisi, firma nomi va boshqa huquqlar shaxslarni mutlaq huquqi deb e'tirof etiladi.[3]

Intellektual mulk huquqi bu - Intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquq. Mulk egasi ana shu intellektual mulk ob'ektlaridan o'z xohishiga ko'ra, har qanday shaklda va usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir.[3]

Mutlaq huquq esa –intellektual mulk ob'yektiga nisbatan uning egasiga tegishli bo'lgan mulkiy huquqlar majmui. Mutlaq huquq egasi intellektual mulk ob'yektidan o'z hohishiga ko'ra har qanday shaklda va usulda mutlaq qonuniy foydalanishga. Shu o'rinda Prezidentimizning „Intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmas ekanmiz, O'zbekiston bundan o'n yildan keyin ham raqobatdosh bo'lmaydi” [6]- deganlari ham intellektual mulkni muhofazasi naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Lekin uni himoya qilishda ham o'ziga yarasha muommolar mavjud masalan; sohada yetarli kadrlarni yetishmasligi, huquqbuzarliklarni vaqtida aniqlanmasligi,davlat xizmatlari ko'rsatishni samarasizligi, patent bojlari va to'lovlarini yuqori darajada ekanligi kabilardir.[3] Bu muommolarni hal etish O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Prezidentimizning qarorlariga asosan: O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi, Intellektual mulk agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspektsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh

Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, O'zbekkonsert davlat muassasasi va boshqa organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Intellectual mulk huquqi – intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquq. Mulk egasi ana shu intellektual mulk ob'yektlaridan o'z hohishlariga ko'ra, har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir.

Muommolarni hal etish uchun Adliya vazirligi quyidagi vazifalarni bajaradi;

Ya'ni ular tovar belgi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida talabnomalar topshirilgandan so'ng, Adliya vazirligi bir ish kuni mobaynida o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi;

Ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va ularning vakillari talabnomalar e'lon qilganidan so'ng, nohalol topshirilgan arizalar haqida yozma e'tiroz etishi mumkin;

Tovar belgisiga va xizmat ko'rsatish belgisiga bo'lgan mutlaq huquq - o'sha kuni o'zida Adliya vazirligini rasmiy veb-saytida majburiy tarzda joylashtirilgan Tovar belgilari davlat reyestirida ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan hisoblanadi.

Tovar belgisiga doir guvohnomalarni amal qilishi O'zbekiston respublikasi hududida uzluksiz ravishda 3 yil davomida ishlatilmaganda, jamoaviy kelishuv buzulgan taqdirda manfaatdor shaxsning arizasiga binoan to'liq yoki qisman tugatilishi mumkin. Bu sohada yana Intellectual mulk huquqini himoya qilish uchun ko'plab chora-tadbirlar ham ishlab chiqilmoqda. Yana 2019- yildan boshlab patent vakillari 5 yilda kamida bir marta malakasini oshirishi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga Xufyona iqtisodiyot holatlarini aniqlash, yashirin ishlab chiqarish vositalarini aniqlash vazifasi yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasini Bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyamizni 42-moddasida ham „Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.“ deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi „Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish to'g'risida“gi PQ-4168-sonli qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Intellectual mulk agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'tkazildi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi deb qayta nomlandi. Intellectual mulk agentligini asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Intellectual mulkda yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, ixtirolar, foydali madellar, sanoat na'munalari, tovar belgilari va boshqa intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

2.Ushbu sohani rivojlantirish boyicha takliflarni ishlab chiqish;

3.Intellektual mulk sohasidagi amalyotni izchil va bir xil ta'minlash boyicha chora –tadbirlar amalga oshirish;

4.Intellektual mulk sohasida xalqaro – huquqiy hamkorlikni, shuningdek intellektual huquqlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar tuzish va mustahkamlash ;

5.Intellektual mulk sohasida ilmiy-tadqiqot olib borish jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va boshqa ishlarni o'tkazishda ishtirok etish.

Agentlik shu bilan birga o'z huquqlariga ham egadir. Ularni huquqlari sirasiga quyidagilar kiradi:

-Davlat organlari, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar faolyatida intellektual mulk sohasidagi talablarni rioya etilishi bo'yicha o'rganishlar o'tkazish;

-Davlat organlari, korxonalar va muassasalar rahbarlariga aniqlangan qonunbuzulishlar ularga imkon beruvchi sabab va shart- sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

-Intellektual mulk sohasidagi rahbarlarga yozma ravishda ogohlantirishlar berish;

-Intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlarini buzgan davlat organlari tashkilotlar va muassasalarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qollash;[4]

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi bilan kelishilgan holda malakali xorijiy mutahasislarni ularga istesno tariqasida agentlikni Budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy valyuta ish haqqi va boshqa to'lovlarni belgilangan holda hodimlar va maslahatchilar sifatida jalb qilish va boshqalar.

***Shuningdek intellektual mulk muhofazasi bo'yicha o'z takliflarim ham mavjud:*** Intellektual mulk muhofazasiga jamoat birlashmalari va jamoalarning aralashuvini yo'lga qoyish kerak. Ular amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi mumkin bo'lgan intellektual mulk muhofazasi buzulishi holatlari haqida Adliya vazirligi va Intellektual mulk agentligi yoki boshqa ma'sul davlat organlariga xabar berishlari mumkin bo'ladi. Yana shu sohadagi ishlarni ko'rish uchun sudga murojat qilish shaklini ham osonlashtirish kerak degan fikrdaman.

*Barcha chora-tadbirlar intellektual mulk sohasini yanada takomillashtirish, shu jumladan tadbirkorlik va innovatsion faolyatni rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratish intellektual mulkni ishonchli himoyasini ta'minlash va mamlakatimizni xalqaro maydondagi imijini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.*

*Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkunkiy texnologik taraqqiyotda intellektual mulk har bir davlat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada mustahkam himoya tizimining mavjudligi ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish, iqtisodiyot innovatsiyalar, madaniyat,*

*adabiyot va sa'natni rivojlantirish, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga samarali tatbiq etish pirovardida mamlakatimizni iqtisodiy va intellektual salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Intellektual mulkni himoya qilishda qonunlarni ahamiyati haqida so'z borar ekan, qonun loyihalarini qabul qilinishi mamlakatda intellektual mulkning huquqiy himoyasini mustahkamlash, intellektual mulk obyektlaridan foydalanuvchi barcha shaxslarda ma'suliyat hissini uyg'otish, intellektul ega bo'lishdan foyda kelishini haqiqiy ma'noda ta'minlashga xizmat qiladi.*

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4168 „Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi”gi 2019-yil 8-fevraldagi qarori.  
O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi
2. Mamlakatimiz rahbarining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son „Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini tog'risida”gi farmoni
3. Intellektual mulk darslik ma'sul muxarlirlar: Yu.F.D.proffessor O. Oqyulov, YU.F.F.D., dosent N. G'afurova.
4. 2019-yil 1-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi „ Intellektual mulk agentligi faolyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4380-son qarori.
5. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi.
6. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)